



MISR ARAB RESPUBLIKASI AL-AZHAR UNIVERSITETINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI

Yoqubjanov Abdurashid

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islom huquqi yo'nalashi 1 - kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqola Misr Arab Respublikasining geografik o'rni, davlat tuzilmasi, konstitutsiyaviy o'zgarishlari va Al-Azhar universitetining diniy va ilmiy ahamiyati haqida ma'lumot beradi. Unda 2014-yilda qabul qilingan yangi konstitutsiya asosida prezidentlik muddati, parlamentning vakolatlari va inson huquqlariga doir kafolatlar tahlil qilinadi. Al-Azhar universitetining diniy va madaniy ta'siri, uning mustaqilligi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi muhim aspekt sifatida ko'rsatiladi. Maqola Misr konstitutsiyasining 7-moddasi va Al-Azhar faoliyatining xalqaro miqyosdagi rolini yoritishga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: *Misr Arab Respublikasi, konstitutsiya, Al-Azhar universiteti, diniy mustaqillik, inson huquqlari kafolati, diniy ta'lim*

Abstract: This article offers an overview of the geographical location of the Arab Republic of Egypt, its governmental structure, constitutional amendments, and the religious and academic significance of Al-Azhar University. It examines the presidential term, the powers attributed to parliament, and the human rights protections established in the 2014 constitution. The article emphasizes the cultural and religious influence of Al-Azhar University, highlighting its independence and the support provided by the state. Furthermore, it illustrates the international role of Al-Azhar's initiatives, showcasing the global impact of Egypt's cultural and religious institutions. The primary focus of the article is on Article 7 of the Egyptian constitution.

Keywords: *Arab Republic of Egypt, constitution, Al-Azhar University, religious independence, guarantee of human rights, religious education.*



(جمهوريه مصر العربيه: Misr Arab Respublikasi (arabcha: Misr) rasmiy nomlanishi: Misr) Afrikaning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan davlatdir. Maydoni 1 million 14 ming km². Aholisi 102 million kishi. Poytaxti — Qohira shahri. Ma'muriy jihatdan 27 viloyatgaga bo'linadi. Isroil, Falastin, Sudan va Liviya davlatlari bilan chegaradosh. Misr shimolda O'rta yer dengizi, sharqida Qizil dengiz joylashgan. Misr davlati ham islom davlatlaridan biri va aholisining asosiy qismi musulmon. Misr davlati-pul birligi Misr funti. Davlat tili — arab tili. Prezidenti — Abdulfattoh as-Sisiy. Misrda yetti mo'jizadan biri ya'ni Misr piramidalari joylashgan. Misrning konstitutsiyasi 1971-yil 11-sentabrdagi referendumda ma'qullangan. 2014 yilda konstitutsiya qayta ishlab chiqildi. Unda quydagicha o'zgarishlar mavjud: prezident va parlament tashkil etilgan [1]. Prezident 4 yillik muddatga sayylanadi va 2 muddatga saylanishi mumkin. Parlament prezidentga impichment e'lon qilishi mumkin. Konstitutsiyaga ko'ra, jinslar o'rtasidagi tenglik va mutlaq e'tiqod erkinligi kafolati bor, lekin Islom davlat dinidir. Harbiylar keyingi 8 yil davomida milliy mudofaa vazirini tayinlash imkoniyatini saqlab qoladi. Siyosiy partiyalar "din, irq, jins yoki geografiya" ga asoslangan bo'lishi mumkin emas [2].

Misr Konstitutsiyasida Al-Azhar universiteti haqida bir nechta moddalarda ma'lumot berilgan. Al-Azhar Misrning eng yirik va eng qadimgi islom universiteti bo'lib, u musulmonlar uchun ilmiy, diniy va madaniy markaz sifatida muhim ahamiyatga ega. Misr Konstitutsiyaning 7-moddasida:

المرجع وهو شوونه، كافة على بالقيام غيره دون يختص مستقلة، علمية اسلامية هيئة الشريف الازهر في العربية واللغة الدين علوم ونشر الدعوة مسؤولية ويتولى الاسلامية، والشئون الدينية، العلوم في الاساسي قابل غير مستقل الازهر وشيخ اغراضه لتحقيق الكافية المالية الاعتمادات بتوفير الدولة وتلتزم .والعالم مصر العلماء كبار هيئة أعضاء بين من اختياره طريقة القانون وينظم للعزل.

Al-Azhar sharif mustaqil, ilmiy islomiy organ bo'lib, o'zining barcha ishlarini nazorat qiladi. Diniy ilmlar va islomiy ishlarda asosiy universitet hisoblanadi. Misr va butun dunyo bo'ylab diniy ilmlar va arab tilini tarqatish va targ'ib qilish uchun mas'uldir. Davlat o'z maqsadlariga erishish uchun yetarli moliyaviy mablag'larni ta'minlash majburiyatini oladi. Al-Azhar shayxi

mustaqildir va uni olib tashlash mumkin emas va qonun uni katta ulamolar kengashi a'zolari orasidan tanlash usulini tartibga soladi.

Al-Azharning diniy ta'limi va faoliyatlar mustaqil bo'lib, uni boshqarish masalalarida davlatning aralashuvi ma'n etiladi. Shu bilan birga, Al-Azhar diniy masalalarda o'z qarorlarini chiqara olish huquqiga ega [3]. Al-Azhar Misrda va butun dunyoda islomiy ta'lim va ilmiy faollikning yetakchi markazi sifatida ko'rildi. U o'z ta'limotini boshqarish va yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Al-Azhar Shayxi (rahbari)ni ta'yinlashda Al-Azharning diniy kengashi mas'ul bo'ladi. Buning uchun alohida komissiya tuzilgan bo'lib, bu komissiya Al-Azharning diniy sohada o'zgarishlarga qarshi mustahkamligini ta'minlaydi.

Konstitutsiyaning bu moddalari Al-Azharning diniy va ilmiy mustaqilligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, u uning musulmon dunyosidagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, biz yuqorida maqolada Misr davlatining geografik o'rni, davlat tuzilmasi va al-Azhar universitetining diniy va ilmiy ahamiyatini o'rgandik. Hamda Misr konstitutsiyasi 7- moddasi al-Azhar universiteti uchun bag'ishlanganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa al-Azhar universitetining Misr davlatida o'rni beqiyos ekanini bildiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
2. Lutfiddin Xodjayev Ahmad Taher. O'zbekiston va Misr hamkorligi.
3. Haydarali Muhamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi.